

JADIDLAR DAVRIDA ADABIY TAHRIR PRINSIPLARINING SHAKLLANISHI

To‘xliyeva Nargiza
O‘zJOKU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Jadidlar davridagi matn sifati va samaradorligiga bag‘ishlangan maqolalar va alohida yaratilgan risolalar adabiy tahrir tarixi, nazariyasi va amaliyoti uchun qimmatli manba bo‘la oladi. Ana shu nuqtai nazardan ularda bildirilgan fikrlarni o‘rganish, namunalarni tahlil qilish muhimdir. Maqolada jadidlar namoyandalarning tahrir, til, so‘z qo‘llash, muharrir va musahhih vazifalariga oid qarashlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: jadid matbuoti, tahrir, adabiy tahrir, tahrir tarixi, muharrir, musahhih.

XIX asr oxiri – XX asrning boshida gazeta va bosmaxonalarning paydo bo‘lishi tahrir tarixidagi muhim nuqtalardan biriga aylandi. Ilk ommaviy nashrlar matn yozish, uni qayta ishlash jarayonlariga nisbatan yondashuvni o‘zgartirdi. Bir vaqtning o‘zida o‘rtaga chiqqan til masalalari gazetaga qanday yozish va uni qanday tuzatish kerak degan savollar dolzarbligini oshirdi. Ularga berilgan javoblar esa nafaqat o‘z davri, balki bugungi OAV matni tahriri uchun ham qimmatli fikr-mulohazalardir.

Jadidlar davriga oid manbalarda, tabiiy ravishda, matn “tas’hih”i (tuzatish, xatolarni to‘g‘rilash), “tag‘yir”i (o‘zgartirish, o‘zgarish), “ta’dil”i (to‘g‘rilash, tuzatish) ga oid ko‘plab misollarni topish mumkin. Jumladan, “Turkiston viloyatining gazetasi” 1901-yil 4-avgust sonida Ibratning bosmaxonaga topshirilgan, ammo bosilmay turgan “Lug‘ati sitta al-sina” (“Olti tilli lug‘at”) nomli lug‘at kitobi nashr etilishini so‘rab yozilgan maqolada lug‘atga kiritilgan tuzatish va o‘zgartirishlar haqida so‘z yuritiladi:

“Mazkur olti lug‘at arabiy, forsiy, turkiy, sarti, hindiy va ruscha kitobni alhol iboralarini durust va tas’hihlab ko‘rib turubdurimiz. Albatta, oning bosilmog‘iga ijozat berilib, nechand nusxalar bosilib chiqsa kerak. Lekin aksar ibora va lug‘atlari tas’hih va tag‘yir bo‘lindi” [6; 11].

Is’hoqxon Ibratning, shuningdek, tarixni bayon qilishga oid fikrlari ham muhim. U “Tarixi Farg‘onani”ni yozishdan maqsadini bayon etar ekan, xonlar va beklarga bag‘ishlab yaratilgan tarixiy asarlarning kamchiliklarini ko‘rsatadi va o‘zining bu borada amal qilgan prinsiplariga to‘xtaladi:

“Tarixni islom muarrixlari aksariyat ila hamma tarixlari umaroi bo‘lib, jug‘rofiy, madaniy yoki sanoiy bo‘lmay, faqat u xonlarning urushlari birla ado qiladurlar. Binobarin, men bu tariximda mubolag‘aga oshurub, maqtab va aqlning kosasiga siqmaydurgan so‘zlarni olmay, ba’zi xurofiy so‘zlarni yozmay, to‘g‘ri va aql kosasig‘a sig‘adurgan so‘zlarni oldim va ajnabiy tarixlardan ko‘proq yozdim” [6; 20].

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ibratning mazkur fikrlari Amir Temur hamda Boburning bayonda tashbih, mubolag‘alardan qochish hamda aniq va ravshan yozishga oid ko‘rsatmalarini eslatadi. Demak, matnda ma‘no, maqsadning to‘g‘ri yetkazilishiga to‘sqinlik qiluvchi ortiqcha so‘zlardan voz kechish barcha davrlarda ham muhim bo‘lgan va bugunga kelib adabiy tahrirning alohida prinsipiga aylangan.

Jadidlar davriga kelib yangi faoliyat turi sifatida shakllangan “gazetachilik” tabiiy ravishda tahririyatlarga material qabul qilish, ularni qayta ishlash bilan bog‘liq muammolarga duch kela boshladi. Gazetaga yuborilgan xatlardagi yozuv, imlo, mazmun bilan bog‘liq nuqsonlar muharrirlar ishini qiyinlashtirar edi. Bu jarayonlar bayoni jadidlar ijodining ko‘p o‘rinlarida uchraydi. Jumladan, Abdulhamid Majidiy “Yetib kel” (1936) hajviy she‘rida shunday yozadi:

“Kosov qo‘l bo‘ldi rasvo bora-bora,
Qog‘oz dod deb yaqosin qildi pora,
Tushunmay Tanqa, Tanballar ovora,
Savod maydonini bir kez, yetib kel,
O‘zing ustingda bir taqriz bitib kel!” [7; 42]

Muallif “Badxat va imloda savodsiz muxbir va muallimlar”ga bag‘ishlangan mazkur she‘rida xati tushunarsiz, imlosi yomon mualliflardan noliydi va yozgan xatida “gapni ezgan”ligi, undan biror mazmuni chaqish qiyin bo‘lgani, har bir harfi bir muammo ekani, xatning maqsadi mana shu deb ko‘rsatib bo‘lmasligini yozadi. Bunga chora sifatida esa, xat egasi uchun alohida “likbez” ochilganini aytadi va savod maydonini bir kezib kelishni, o‘z ustida taqriz bitib kelishini tavsiya qiladi.

Bu mavzudagi hajviy dakki Majidiyning “Ijodning g‘ovi” (1936) hikoyasida davom etadi:

“Uchinchi – shoirning asaridan nusxa ko‘chiruvchi kotiblar. “Ulfat”ni “kulfat” ko‘chirib, “ko‘z”ni “ko‘r” qiladilar. Shu hunarlari uchun haq oladilar. ... Bizda hozir kotiblar yo‘q, lekin “texnicheskiy muharrir”lar bor. Qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarish, “muz”ni “tuz”, “g‘o‘ra”ni “ko‘ra” qilish bilan nom chiqaradilar” [7; 136].

Majidiy o‘tmishdagi kotiblar va o‘z davrining “texnicheskiy muharrir”larini solishtirar ekan, barcha davrlarda hatto kichik xatolar ham ijodning g‘ovi bo‘lib kelganligini ta’kidlaydi.

Ommaviy axborot bilan ishlashning dastlabki tajribalari sohada tahrir amaliyotining naqadar muhimligini ko‘rsatdi. Axborot janrlari materiallarini yozish tartibi, tahrir tamoyillari, sarlavha qo‘yish masalalari tobora dolzarblik kasb eta bordi. “Muxbirlarg‘a ta’limot” (1923-y.) “Muxbirg‘a yordam” (1927-y.) “Muxbirlar yo‘ldoshi” (Naim Said, O‘zbekiston davlat nashriyoti, 1927-y.), “Xabarni qanday

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

tuzatish kerak” (“Qizil O‘zbekiston” gazetasining nashriyoti, 1940-y.) kabi risolalar buning isbotidir. Jumladan, Anqaboy Xudoybaxtov tomonidan yozilib, 1927-yilda chop etilgan “Xabar, maqola, she‘r va hikoya yozish yo‘llari” kitobida maqolaning hajmi, xabarning qanday yozilishi masalalari yoritilgan. Risolada biz uchun ahamiyatli bo‘lgan matnning tahrirgacha va tahrirdan keyingi ko‘rinishlari keltirilgan:

<i>Хабарчининг ёзуви:</i>	<i>Газетачи тuzатгандан кейин:</i>
<i>Масалан, Янгиқўрғон кентида бўлгон капиратиф дўконининг мудури эски Некалай замонидан қолгон ёмон киши бўлуб, деҳқонларга жуда кўп азоб берадир. Деҳқонлар мол олиши учун капиратиф дўконига борсалар у доим ўзининг ўртоқлари билан қарта ўйнаб ўтирадир. Деҳқонларга “келинглар, нима оласизлар?” демайди. Деҳқонлар мол беринг деса, урушиб юборадир. Шундай ёмон кишилар деҳқонларни жуда эзмакдалар. Эшмат ўгли”</i>	<i>“Жиззах туманидаги Янгиқўрғон кенти капиратиф дўконининг мудури Пирмат ўгли деҳқонларга мол сотиши ўрнига қарта ўйнаб ўтирадир. Агар деҳқонлар мол сотинг десалар урушиб юбориб, шўро капиратифидан кўбчиликни қочирадир. Эшмат ўгли” [3; 110].</i>

Shuningdek, Behbudiy “Oyna” jurnalida (1915-yil 11-12-sonlari) e‘lon qilingan “Til masalalari” maqolasida ham muharrirning o‘zga tillardan so‘z olish, til sofliqi, tilni adabiy lashtirish va rivojlantirish masalalariga to‘xtalib o‘tadi:

“...O‘ram tili tarafdori yoinki sodda til tarafdori bo‘lgan ba‘zi totor matbuoti yildan-yilg‘a adabiyga aylanmoqdadir. Masalan, “Vaqt”, “Sho‘ro”, “Yulduz” jaridalarining avvalgilari va hozirgisini taftish qilinsa, hozirgilarini adabiyliqi zohir bo‘lur. Kafkoz matbuoti avvaldan adabiy bo‘lub, o‘n sanalardan beri matbuot, kog‘az ustidagi adabiy tilni, xalqni til va so‘zig‘a ta‘sir etib o‘tkardiki, bul o‘shal viloyatlarda diqqat etganlarg‘a ma‘lum bo‘lur. Hech bir firqa va yo lahjaning avom tili matbuotg‘a kirmaydur... Ba‘zi afandilar mehmonni “qo‘noq” deyulsin deb taklif etarlar. Holbuki qo‘noq deganda, bir turk fahmlaydur. Mehmon deganda, turk fahmlagani ustida, yana bir forsiy musulmon qardoshimiz-da, anglaydur” [4; 185-186].

“Qizil O‘zbekiston” gazetasida e‘lon qilingan “Matbaa xatosidan dod” maqolasi o‘sha davrdagi tahrir, tas‘hih bilan bog‘liq muammolarni aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi:

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Har bir jonivor va har bir mahluqotning bir kushandasi bor, yozu (yozuv)chining ham kushandasi bor, u kushanda kim desangiz: musahhih deb javob beraman.

Sichqonning ko‘nglida joy olg‘on mushukning dardidek yozg‘u(v)chining dilida korrekto‘rga qarshi bir alam bor. Ham xavf, ham g‘azab va ham alam.

Gap bunda:

Yozg‘uchi maqolasida (yozuvida) bir so‘zni yozsa uni bosmaxonachilar boshqa qilib chiqoradirlar, masalan yozg‘uchi “eslang” (onglang) degan so‘zni yozadir, bu so‘z ertasiga “nimsang” bo‘lib chiqodir; “elchi” yozadir, bunisi “ishchi” bo‘lib chiqodir; “qo‘shchi” yozadir, “o‘quchi” bo‘lib chiqodir bu karrektorning xapsalasizligidan. Ammo bir xil xapsalalik musahhihlar ham bo‘lodir, (ki) bularning “xapsala”lari yozg‘uchig‘a zarar bo‘lib chiqodir. Bu xildagilari yozg‘uchining yozg‘onlarig‘a muharrirlik qilishodirlar, masalan: yozg‘uchi “xafiya” (josus) yozsa xapsalalik korektor “bu gap xufya bo‘lsa kerak, yozg‘uchi xato qilibdir” deb o‘zicha “tuzatib” qo‘yodir, yoki “intiboq” degan bir so‘z chiqib qolsa: “bunday gap bo‘lmas ediku, bu “intifoq” bo‘lsa kerak deb buni ham “tas‘hih” qilib qo‘yodir. Ba‘zan “ning”ni “ni” “ni”ni “ning qilodir”[5].

1940 yilda “Qizil O‘zbekiston” gazetasining nashriyotida devoriy gazeta muharrirlari va ishchi dehqon muxbirlari sirtqi kursi uchun nashr qilingan broshyurada ham tahrir nazariyasi va amaliyoti uchun ko‘plab muhim qoidalar va ularni to‘ldiruvchi misollar keltirilgan. Bu ma‘lumotlar shunisi bilan qimmatliki, ular tahrir amaliyotida qoidalarning qanday va nima sababdan yuzaga kelganini ko‘rsatib beradi. U dastlab rus tilida nashr qilingan va o‘zbek tili xususiyatlari, imlo qoidalarini inobatga olgan holda o‘zgartirishlar bilan tarjima qilingan, misollar almashtirilgan. Broshyurada maqolani adabiy jihatdan tuzatish, ko‘chirma olish, chet so‘zlarni keraksiz o‘rinda ishlatmaslik, qisqartma so‘zlarni ishlatish, gazeta tili, so‘z tanlash va qo‘llash (tartibi), raqamlarni tekshirish va jadvallarning berilishi, so‘zlarni qisqartirish masalalariga alohida mavzular ajratilgan.

“Shu qaidani yad qilib alingiz: dushmanni fash qilib turib, uning qabih tuhmatini takrarlamangiz; bezarini fash qilib turib, uning jlavsiz faxish so‘zlarini takrarlamangiz; yalqavni fash qilib turib, hujum qilish yosunida aytilgan so‘zlarni takrarlamangiz. Dag‘al brigadirning kolxozchi ayalni haqarat qilgani haqida gapirib turib, dag‘al brigadirning haqaratli so‘zlarini takrarlamangiz, chunki bu blan kolxozchi ayalni ikkinchi marta, bu safar xalq aldida, matbuot arqali xaqarat qilgan bo‘lasiz, bo‘lgan vaqianing faqat o‘zini yozingiz, ya‘ni falan kishi falanni xaqarat qildi, deb qo‘ya qalingiz” [10; 5].

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Abdulla Qodiriy maqolalarida “So‘z cho‘zilmasin, o‘qug‘uchining qiymatli vaqti isrof bo‘lmasin”, “O‘tkan kunlar”ni yozar ekanman, doim ko‘z o‘ngimda o‘qug‘uchi ommamiz turar edi” [1] kabi tahrirga oid juda ko‘p ko‘rsatmalarni uchratamiz. Jumladan, yozuvchi Chexov hikoyalari haqida fikr yuritish asnosida bizga matnda so‘zlarni ortiqcha sarflamaslik haqida qimmatli fikrlar beradi:

“Mayda hikoyalar ustasi Chexov so‘z to‘g‘risig‘a kelganda haddan tashqari xasis, ortiqcha so‘zlar sarf qilish u yoqda tursin, kerakliklaridan ham mumkin qadar yulishga harakat qiladi. O‘zi aytadi: “Mayda hikoyalar yozganda so‘zni ortiqcha isrof qilg‘andan ko‘ra, kerakliklarini ham mumkin qadar ozroq ishlatish kerak”. Uning hikoyalari so‘z isrofgarchiligiga sabab bo‘laturg‘an ortiqcha detallar ham bo‘lmaydi. U butun detallarni o‘zi aytgan asosda ishlatadi. «Birinchi ko‘rinishda miltiq bo‘lsa, shu miltiq uchinchi yoki to‘rtinchi ko‘rinishda, albatta, otilishi kerak, yo‘qsa miltiq to‘g‘risida so‘zlashning hojati yo‘qdir”.

2]. Adabiyotshunos Bahodir Karimov o‘zining “Bir hikoya qismati maqolasida” Abdulla Qodiriyning “O‘zbekiston sho‘ro adabiyoti” jurnali 1932-yil 3-sonida bosilgan va keyinchalik o‘zgarishlar bilan “Obid ketmon” qissasi tarkibiga kiritilgan “Quyosh bilan ham kurashaman” nomli hikoyasidagi yozuvchi tomonidan tahrir qilingan o‘rinlarga e‘tibor qaratadi:

“... hikoya qissa tarkibiga kiritilganda, “brigadir – bo‘ltakboshi”, “ingichka – nafis”, “egat – pushta”, “badani – a‘zosi”, “g‘ilay – beo‘xshoq”, “sergo‘sh – etliroq”, “surnay – xalqum”, “chog‘lab - juplab”, “ro‘mol – xom surp”, “oq tuman – oq tutun”, “atrof jimjit – tevarak tinch”, “Oshning o‘tini boya o‘chirganman – Oshning o‘tini yaqinda to‘xtatdim”, “Nomim Nosir sayyor Toshkandiy – Nomim Nosir sayyori Samarqandiy” kabi tahrirlar amalga oshiriladi”. ...

Hikoyada Po‘lag‘urning g‘oliblik nashidasini adib: “Buning hozirg‘i ko‘rinishi hindilarning o‘luk yoqaturg‘on go‘rkovlarini xotirlatmoqda edi”, degan o‘xshatish bilan tasvirlaydi. Bu tasviriy gap qissa nusxasida yo‘q. Ehtimol, hind go‘rkovini o‘zbek o‘quvchisi tasavvur qilishi qiyinligini o‘ylab, yozuvchi uni qisqartirgandir” [8; 16].

Mazkur tuzatish adabiy tahrir uchun muhim qoidani keltirib chiqarishga yordam beradi, ya‘ni matnda o‘quvchi tasavvur qilishi qiyin bo‘lgan elementlarni (shaxslar, predmetlar, voqealar, tushunchalar) ishlatmaslik, ishlatilgan taqdirda ularga, albatta, izoh berish kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari “Qizil bayroq” gazetasiga yuboriladigan maqola va xabarlarining qisqa va mazmunli bo‘lishi talab etilgan “Idoramizga maqola va xabar yuboruvchilarga” (“Qizil bayroq”, 1921-yil 22-noyabr) [9; 176], Julqunboyning “Mushtum” jurnalining tili, uslubi va mundariyasi tanqidiga bag‘ishlangan “Mushtum”: (Tanqid)” (“Qizil

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOY-SIYOSIY MASALALARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O‘zbekiston”, 1925-yil 7-avgust), “Muxbirlarga tarbiya: Gazetalarga qanday masalalar to‘g‘risida yozish kerak?” (“Qizil O‘zbekiston”, 1925-yil 25, 27, 29-sentyabr), “Muxbirlarga tarbiya: Xabarlarini qanday yozish kerak?” (“Qizil O‘zbekiston”, 1925-yil 14-oktyabr), Nurmat imzosi bilan e‘lon qilingan “Devoriy gazetalar: (Muxbirlarga tarbiya)” (“Qizil O‘zbekiston”, 1925-yil 23-oktyabr) [9; 528], Aliyev Komilning O‘zbekiston davlat nashriyotida chop etilgan asarlar haqidagi “Faqat muxbirlar sho‘ri” (“Qizil O‘zbekiston”, 1928-yil 9-oktyabr) [9; 545] maqolalarda imlo va tahrir masalalari ko‘tarilgan.

Jadidlar ijodi shu paytgacha rus adabiyotlari asosida yaratishga urinilayotgan tahrir nazariyasini milliy yondashuv asosida ishlab chiqish imkonini beradi. Zero, matn tahriri mezonlari milliy tafakkur, milliy til xususiyatlari, ijodiy an‘analardan kelib chiqadi. Maqolada keltirilgan tahrir namunalari, matn va uning tahririga oid fikrlar bu borada mavjud xazinaning juda kichik qismi, xolos. Ijodkorlar, matn tahririga qo‘yilgan mezonlar kesimida ularning har birini batafsil o‘rganish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qodiriy. “O‘tkan kunlar” ham “O‘tkan kunlar” tanqidi ustida ba’zi izohlar // Sharq haqiqati. – 1929. – 218-son. – URL: <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/abdulla-qodiriy-o-tkan-kunlar-ham-o-tkan-kunlar-tanqidi-ustida-bazi-izohlar-1929> (мурожаат санаси: 23.02.2022).
2. Abdulla Qodiriy. O‘qush – o‘rganish // Sovet adabiyoti. – 1936. 3-son. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/abdulla-qodiriy-o-qush-o-rganish-1936> (мурожаат санаси: 23.02.2022).
3. Анқабой. Хабар ва мақолани қандай ёзиш керак? / Сўзбоши муаллифи Н.Намозова // Филология масалалари. – 2008. – 1 (18)-сон. – 107-115-б.
4. Бехбудий М. Танланган асарлар // Тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар: Б. Қосимов. 2-нашри, тузатилган ва тўлдирилган. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 280 б.
5. Газетчи. Матбаа хатосидан дод // Қизил Ўзбекистон. – 1925. – 26 май.
6. Ибрат, Сиддиқ-Ажзий, Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва луғат муаллифлари: Б. Қосимов, С. Аҳмедов, У. Долимов. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 232 б.
7. Мажидий Абдулҳамид. Танланган асарлар / Тўпловчи: Ҳ.Узоқов. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 160 б.
8. Каримов Б. Бир ҳикоя қисмати // Қатагон қурбонлари ва уларнинг адабий-бадий ҳамда публицистик мероси (“Ўзбекистонда сталинча қатагонга учраган ва фаолияти кам ўрганилган маданият ва жамоат арбобларининг фаолияти ҳамда илмий-маърифий, ижодий меросининг истиқлол йилларида ўрганилиши” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари 2015 йил 15 апрель) / масъул муҳаррир Н.Каримов. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2015. – 13-17-б.

9. Миллий матбуот фихристи: “Иштирокиюн”, “Қизил байроқ”, “Туркистон” ва “Қизил Ўзбекистон” газеталарида эълон қилинган мақолалар изоҳли библиографияси / Тузувчи Ф.Нуриддинова; масъул муҳаррир Н.Каримов. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2020. – 696 б.
10. Хабарни қандай тузатиш керак. – Тошкент: “Қизил Ўзбекистон” газетаси нашриёти, 1940.